

MILLATIMIZ “GUVOHNOMA”SI

Nasiba Raimnazarova,
TerDPI katta o‘qituvchisi, f.f.f.d. (PhD).
Gulchiroy Faxritdinova,
TerDPI O‘zbek tili va adabiyoti
yo‘nalishi 1-bosqich magistranti.

Annotatsiya: Til millatning ruhi. Bugungi kunda millatimiz shahodat jabhalarining asosi bo‘lgan ona tilimiz nufuzi, uni globallashtirish jarayonida tashqi va ichki bo‘hronlardan, “ommaviy madaniyat” va turfa tashviqiy xurujlardan himoyalash, tilning qadr-qimmatini va ahamiyatini yosh avlod hayotiga tatbiq etish, tilimiz ustuvorligini singdirish, ardoqlash va himoya etishning qanday an’anaviy va zamonaviy usullari bor? Ushbu maqolada shular haqida qisqacha bayon etiladi.

Kalit so‘zlar: 4-modda, millatparvarlik, davlat idoralari, ma‘muriy jazo, qadriyat, meros, peshtoqlar, ehtiyoj, ardoqlash, usullar, Herman Hesse.

Аннотации: Язык – душа нации. Сегодня авторитет нашего родного языка, который является основой мученичества нашей нации, защищает его от внешних и внутренних кризисов, «массовой культуры» и различных пропагандистских атак в процессе глобализации, применяет ценность и важность языка. язык в жизнь молодого поколения, прививать и уважать приоритет нашего языка и каковы традиционные и современные методы защиты? В этой статье они будут кратко описаны.

Ключевые слова: статья 4, национализм, государственные органы, административное наказание, ценность, наследие, границы, нужда, честь, методы, Герман Гессе.

Abstract: Language is the soul of the nation. Today, the authority of our mother tongue, which is the basis of the martyrdom of our nation, to protect it from external and internal crises, "mass culture" and various propaganda attacks in the process of globalization, to apply the value and importance of the language to the life of the young generation, to inculcate and honor the priority of our language and what are the traditional and modern methods of protection? This article will briefly describe them.

Key words: Article 4, nationalism, state agencies, administrative punishment, value, heritage, fringes, need, honor, methods, Herman Hesse.

Kishi avia chipta sotib olish uchun chiptachiga shaxsini tasdiqlatish uchun hujjat uzatadi... Samolyot uchish oldidan nazoratdan o‘tkazish joylaridagi xodimlar guvohnoma, chipta va yo‘lovchiga razm tashlab, “xavfsiz parvoz” tilaydi...

Millat ham shu. Xuddi odam kabi millatning qiyofasini oydin etuvchi “guvohnoma”lari bor. Ularning eng ulug‘i – til! Agar millat tilsiz bo‘lsa, kelajak sori

parvoz etolmaydi! To tilini topguncha, tiliga erishib, uni o‘z hayotida, o‘z izzati nafs, sha’ni, g‘ururi, faxri o‘laroq ma’naviy hayotida muntazam tatbiq etib, ardoqlab, o‘zga tillar izdihomida ona tilining qadr-qimmatini uchun kurashmas ekan, parvoz haqida gap ham bo‘lishi mumkin emas! Bu haqida so‘nggi yuz yil ichida jadidlardan to yangi asr ziyolilariga do‘r ko‘p va xo‘p qayg‘urildi, aytili va bitib kelinayotir. Biroq globallashuv o‘chog‘idan uzluksiz uchqun sachratayotgan taraqqiyot olovi jahonga yangi atamaları, yangi narsa-buyum, joy va zamonaviy texnologiyalar nomlari hamda internet olamining so‘nggi “topildi”larini bermoqda. Aniqrog‘i shu yo‘l bilan ko‘plab madaniyat va qadriyatlar, an‘analarga bilib-bilmay mafkuraviy xavf solmoqda. Shunday shovqinli muhitda o‘zbek jamiyatida ham, duch kelgan ajnabiy kalomni iistifoda etib, uni nafaqat so‘zlashuvda, balki ommaviy axborot vositalari orqali keltirilishi muqarrar bo‘lgan ma’naviy zararini inobatga olmay, ko‘r-ko‘rona targ‘ibu tashviq etish holatlari o‘z ona tili nufuzi uchun kurashga kirgan odamni ranjitadi, albatta. Xo‘sh, nima qilmoq kerak?! Qanday qilsak, ona tilimiz asrlar osha barqaror, o‘zining bor go‘zalligi bilan keyingi nasllarga meros qoladi? Bu yuzaki qog‘ozbozlik, haybarakallachilik yoinki “xo‘ja ko‘rsin” qabilida ish tutish bilan hal qilib bo‘ladigan tarixiy vazifa emas.

Til – hal qiluvchi masala. Millatning yo u yoqli-yo bu yoqli bo‘lishini belgilab beruvchi asosiy birlik. Demak, tilni saqlab qolish uchun qilinadigan ishlarga ham millatni saqlab qolish darajasida ahamiyat qaratilmog‘i lozim. Nazarimizda, amallar quyidacha:

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaning 4-moddasiga o‘zgartirish kiritish, o‘zbek tilining buzilishi holatlari qonunan javoblargikka tortilishi mazmunida band kiritish va shu bo‘yicha tegishli qonun hujjatlarini ishlab chiqib, qonunni kuchga kiritish;

davlatchilikning muhim birliklari, qonun va qonunosti hujjatlari, Qaror, Farmon va Farmoyishlar, diplomatik aloqalar, jahon minbarlaridagi siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, ilmiy va madaniy masalalarga doir so‘zlanadigan nutq, tezislar o‘zbek tilida bayon etilishini ta‘minlash;

O‘zbekistonda o‘zbek tilining buzilish holatlariga yo‘l qo‘yuvchi jismoniy va yuridik shaxslarga nisbatan ma‘muriy jazo qo‘llash (nega endi eng oddiy yo‘l harakati qoidasini buzgan haydovchi jarimaga tortilib, butun boshli o‘zbek tilini buzgan fuqaro jarima to‘lamasligi kerak?);

barcha viloyatlar va poytaxtning markaziy ko‘chalaridan tortib, to eng chekka hududlarigacha peshtoqlarga ilingan yozuvlardan to taomnomayu, bank qurilmalarning cheklarigacha aks etadigan barcha ijtimoiy-maishiy yozuvlar o‘zbek tilida bo‘lishini qonunan joriy etish va muntazam nazoratga olish;

ommaviy axborot vositalari, davlat va nodavlat televideniyealar orqali sof o‘zbek tilining nufuziga putur yetkazuvchi har qanday audio, vidyeo, matnlarni cheklash, tartibga solish;

o‘zbek tili – vatanparvarlikning asosiy belgilaridan biri ekanligini aks ettiruvchi targ‘ibot vositalari, reklama, rolik, qo‘shiq, film va turli yondosh ijodiy sohalar yordamida g‘oyaviy mahsulotlar tayyorlash;

umumta‘lim maktablari, ixtisoslashtirilgan maktab, oliy ta‘lim muassasalari va oliy ta‘limdan keyingi ta‘lim bosqichlarida o‘zbek tili fanini o‘qitish metodikasini tubdan isloh etish, tilning yangi O‘zbekiston taraqqiyotining ajralmas qismi, ifoda vositasi – ovozi (!) bo‘lishini yosh avlod qalbida g‘oyaviy jihatdan mustahkam usullarda shakllantirib borish;

xalq ta‘limi va oliy ta‘lim tizimlarida buyuk ajdodlarimiz va o‘zbekning millatparvar ziyolilari merosini chuqur o‘rgatishga, har bir o‘quvchining shaxsiy va milliy izzati nafsini o‘stirishga, Ona Vatani va Ona tilinidan g‘urur hissini tuyuvchi, millat va mamlakat manfaatlarini har qanday sharoitda himoya qilishga qodir o‘g‘il-qiz bo‘lib ulg‘ayishiga xizmat qiluvchi “Millatparvarlik fani”ni joriy etib, astoydil yeng shimarsak, bu sa‘y-harakatlar, albatta, kutilgan natijalarni beradi.

“O‘z tilini yaxshi bilmagan, sevmagan, ardoqlamagan va uni himoya qilmagan xalqning shoiri bo‘lish uyatdir”, deydi olmon adibi Herman Hesse. Shu ma‘noda o‘zbek tilining taqdiri faqat va faqat ma‘naviyat va ma‘rifat yo‘li orqali obod bo‘lishi mumkin. Mamlakat har qancha taraqqiy etib, ertaknamo shaharlar qurib, qimmatbaho

qog‘ozlaru oltinu kumushga ega bo‘lmasin, millat o‘z ona tilida so‘zlamas ekan, bari abas – u qiyofasiz, ertangi kun uchun yo‘lsiz, demakdir.

Shunday ekan, o‘zbek tili uchun qayg‘urishni minbarlardan tushgach ham, maqolayu tezisni yakunlagach ham, har kuni, har soatda ko‘z oldimizdan ketkazmasligimiz, hayotiy ehtiyoj o‘laroq qabul qilishimiz shart.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi;
2. “Surxon yoshlari” gazetasi 2021 yil 12-son;
3. Hesse H. “Nyurnbergga sayohat”. – Toshkent: O‘zbekiston, 2012 y. 3-b. Olmonchadan Mirzaali Akbarov tarj.
4. www.lex.uz sayti
5. Majidova Shahnoza Komilovna. (2023). AVESTO DA SUV KULTI BILAN BOG‘LIQ MIFLAR VA MIFOLOGIK OBRAZLAR. *PEDAGOGS*, 46(1), 63–66.
6. Toshqulova Zebiniso Baxriddin qizi. (2024). OKSYUMORONNING EMOTSIONAL-EKSPRESSIV XUSUSIYATLARI . *TADQIQOTLAR.UZ*, 39(8), 26–30.
7. Musurmonkulov A. Correlation Of Lexical-Semantic Relations With Graduonymy //Science and innovation. – 2023. – T. 2. – №. C10. – C. 168-170.
8. Lobar Mardonova, & Sevinch Abirova. (2024). TURKISTON JADIDCHILIK HARAKATI TARIXI . *TADQIQOTLAR.UZ*, 39(8), 79–82.
9. Sayfullayev Najibullo Hayriddin o‘g‘li, & Jo‘rayeva Marjona Baxtiyor qizi. (2024). O‘ZBEK TILINING JAMIYAT TARIXI BILAN BOG‘LIQLIGI . *TADQIQOTLAR.UZ*, 39(8), 155–157.
10. Sayfullayev N. H. o‘g‘li. (2023). IJTIMOY – SIYOSIY TERMINLAR TUSHUNCHASI VA TALQINI. *Innovative Development in Educational Activities*, 2(12), 106–111.
11. Раимназарова, Н. (2023). Формоструктурное описание диалектизмов в толковых словарях. Традиции и инновации в исследовании и преподавании языков, 1(1), 316–319.